

# TARJIMA NAZARIYASI ARTUR KONAN DOYLNING DETEKTIV ASARLARI TALQINIDA

**Abdusalimova Sadoqat Adxamjon qizi**

Farg'ona Davlat universiteti  
mustaqil tadqiqotchi

Sadoqatabdusalimova9@gmail.com

**Anotatsiya:** Ushbu ilmiy ishda Artur Konan Doylning detektiv asarlari, xususan, Sherlok Xolms haqidagi hikoyalar tarjimasini nazariyasi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Asarda tarjima jarayonida detektiv asarlar uchun xos bo'lgan uslubiy xususiyatlar, janr talablariga mos ravishda asliyatga sodiqlik, badiiy obrazlarning yaratilishi va til o'ziga xosliklarini saqlash masalalari ko'rib chiqiladi. Asar mazmunini o'zgartirmasdan detektiv janr atmosferasini yetkazish bo'yicha tarjimonlarning yondashuvlari baholanadi. Ishning ilmiy yangiligi detektiv asarlarni tarjima qilishning o'ziga xos murakkab jihatlarini yoritishda namoyon bo'ladi. Natijalar tarjimonlar va adabiyotshunoslar uchun amaliy tavsiyalarni taqdim etib, tarjima jarayonining nazariy va amaliy jihatlarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** tarjimon, tilshunos, ekvivalensiya, interpritsiya, Sherlock Holmes seriyasi, kontekst, adekvat tarjima, amaliy yondashuv, nazariy yondashuv, inglizcha iboralar, jargonlar.

**Abstract:** In this scientific work, the translation of Arthur Conan Doyle's detective works, especially the stories about Sherlock Holmes, is analyzed from the perspective of translation theory. The work examines the stylistic features typical of detective works, faithfulness to the original in accordance with the requirements of the genre, the creation of artistic images, and the preservation of language peculiarities during the translation process. The translators' approaches to convey the atmosphere of the detective genre without changing the content of the work are evaluated. The scientific novelty of the work is manifested in the illumination of specific complex aspects of the translation of detective works. The results provide practical

recommendations for translators and literary scholars, helping to further understand the theoretical and practical aspects of the translation process.

**Key words:** translator, linguist, equivalence, interpretation, Sherlock Holmes series, context, adequate translation, practical approach, theoretical approach, English idioms, jargon.

**KIRISH.** Insoniyatning o'zaro munosabatlari, muomalalari, muloqotlari, turlituman aloqalarga tashna-yu ehtiyojmand karvonlari o'n ming yillardan buyon dunyo o'lkalarini kezdi, qit'alardan qit'alarga o'tadi. Keti uzilmagan shu karvonlar safida savdogarlar, sarkardalar, olimlar, din ulamolari, targ'ibotchilar, munajjimlar, hunarmandlar, tabobatchilar, hakimlar qatorida, albatta tarjimonlar ham bo'ladilar. Tarjimonlar xalqlarning bir-birlarini bilish va o'rganishlariga tengsiz hissa qo'shadigan shaxslardir.

Tarjima nazariyasi, tilshunoslik va madaniyatshunoslikning bir qismi bo'lib, tarjima jarayoni va uning nazariy asoslarini o'rganuvchi fan hisoblanadi. Tarjima nazariyasi asosan tarjimonning asar matnini asl holatida saqlab qolgan holda, boshqa tilga o'zgartirishni ta'kidlasa, uning detektiv adabiyotlaridagi o'rni, ayniqsa Artur Konan Doylning detektiv asarlarida, juda muhimdir. Doylning asarlari, ayniqsa, "Sherlok Xolms" seriyasi, faqat ingliz adabiyoti uchun emas, balki jahon adabiyoti uchun ham katta ahamiyatga ega. Tarjima nazariyasi bu asarlarni boshqa tillarga tarjima qilish jarayonida qanday amaliy va nazariy yondashuvlar mavjudligini o'rganadi.

Umumiylashtirish asoslarga ko'ra tarjima nazariyasi til o'zgarishlari, madaniyatlararo aloqalar va tilning xususiyatlari bilan bog'liq. Tarjima nazariyasining asosiy tamoyillari, masalan, ekvivalentsiya, interpretatsiya va lo'nda ifodalash kabi yondashuvlar, tarjimonning asar matnini ma'no va shakl jihatidan to'g'ri yetkazishiga yordam beradi. Tarjima jarayonida tarjimon nafaqat matnni asl tildan ma'no jihatidan o'zgartiradi, balki uning stilistik va madaniy elementlarini saqlab qolishga harakat qiladi.

Leonardo Bruni (1374—1444) Platon va Aristotel asarlarini tarjima qilgan italiyalik tarjimonlardan yana biri bo'lib, u 1420-yilda nashr qilingan "Tarjima qilishning to'g'ri usuli" asarida XV-asming tarjima muammolari haqida yozgan. Bu kitobida u tarjimonning mahoratini tasvirlagan va quyidagi Oltinga teng so'zlarini keltirib o'tgan: " Tarjimonning qudrati bir tildagi matnni boshqa bir tilga o'girayotganda keltirilgan ma'noni saqlab qolishda deb ta'kidlayman. Agar tarjima qilayotgan shaxs har ikki tilni keng va chuqur bilmasa. u yaxshi tarjima qila olmaydi. Lekin bu yetarli emas, ko'p odamlar matnni izohlarsiz, musiqani esa ashulasiz anglay oladilar. ammo tarjima unday emas, bunda izoh va tushuntirishlar zarur. To'g'ri adekvat tarjima buyuk va qiyin narsadir. Albatta, dastlab, siz tarjima qilayotgan tilingizni yaxshi bilishingiz va bilimingiz chegaralangan yoki oz bo'lmasligi lozim, chuqur tajribaga ega bo'lish, hamda bilimlarini kunda faylasuf, notiq, shoir va yozuvchilarning asarlari yoki nutqlarini mutola qilib kengaytirish kerak".<sup>1</sup>

### Artur Konan Doyl va uning asarlarini tarjima qilish

Artur Konan Doylning asarlari, xususan, "Sherlok Xolms" seriyasi, ingliz tilining xususiyatlari va madaniy elementlari bilan boydir. Konan Doylning asarlarini tarjima qilishda eng katta qiyinchiliklardan biri, ingliz tilidagi madaniy va tarixiy sharoitlarni boshqa tillarga to'g'ri ko'chirishdir. Misol uchun, "Sherlok Xolms"ning muayyan voqealari yoki ijtimoiy qoidalari ingliz jamiyatining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Bunday holatlar tarjimonda asar matnining madaniy kontekstini saqlash uchun ayniqsa murakkab bo'lishi mumkin. "I examined the stranger carefully, and after a moment I recognized my dear friend Sherlock Holmes in disguise.

"Holmes, my Lord! What are you doing here?!" I cried in surprise.

"Hush, be as quit as you can."

<sup>1</sup> G'ofurov I. Tarjima nazariyasi. -Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2012. - 44b

We left the horrible place and made our way to the Cedars where Sherlock was staying in Mrs St Clair's house as he was in the process of solving a case involving her husband. “

Tarjimonning asosiy vazifasi, matnning ma'no va ruhini boshqa tilga o‘zgartirishdan iborat. Tarjima nazariyasiga ko‘ra, tarjimon nafaqat tilshunos, balki madaniyatshunos ham bo‘lishi kerak, chunki har bir tilning o‘ziga xos konteksti bor. “Sherlok Xolms” asarida, misol uchun, til va madaniyatga oid unsurlar, masalan, Viktoriya davrining ijtimoiy tartib-qoidalari yoki zamonaviy texnologiyalarning ilk namunalari, tarjimonda albatta hisobga olinishi kerak. Bunday tafsir, o‘z navbatida, Doyning asarlarini boshqa tillardagi o‘quvchilar uchun tushunarli va qiziqarli qiladi. “The man with the Twisted lip” asariga nazar tashlasak:

“I examined the stranger carefully, and after a moment I recognized my dear friend Sherlock Holmes in disguise.

“Holmes, my Lord! What are you doing here?!” I cried in surprise.

“Hush, be as quiet as you can.”

We left the horrible place and made our way to the Cedars where Sherlock was staying in Mrs St Clair's house as he was in the process of solving a case involving her husband. “<sup>2</sup>

Bunda o’sha Viktoriya davriga xos bo’lgan so’zlashuv uslublari va murojaatlarini ko’rish mumkin. Tarjimon esa tarjimada quyidagicha bayon etadi:

Bu niqoblangan notanish meninge ski qadrdom Sherlock Holmes ekanligini sal keyinroq payqadim.

<sup>2</sup>Arthur Konan Doyle. The man with the Twisted Lip. The adventure of Sherlock Holmes. Toshkent-2017 25-b

“Holmes,qadrdonim! Bu yerda nima qilyapsiz?- ajblanib so’radim baland ovoz bilan.

“Shshsh! Sekin gapirsangiz-chi!”

Shundan so’ng biz bu daxshatli joydan chiqib ketdik va Sedar tomon yo’lga otlandik. Sherlock Sedarda Kler xonimning eri bilan sodir etilgan jinoyatni ochish maqsadida turayotgan ekan.<sup>3</sup>

Badiiy adabiyot tarjimasida juda katta bilim talab qilinadi. Bunda birinchidan, mutaxassislikning butun sir-asrorlaridan xabardorlik. Ikkinchidan, Terminlar, tushunchalar ichida bilimdonlik bilan mohir ixtisos egasi sifatida ishlash. Uchinchidan, rivojlantirilayotgan fikrlar va g’oyalarning nozik tovlanishlari va bog’lanishlarini anglash va tushunish. Bunday tarjimada mohirlikni Dilbar Boyliyevaning tarjimalari misolida ko’lrish mumkin. “The engineer’s Thumb” ni tarjima qilish mobaynida “Later when we reached Eyford station, we saw a cloud of smoke coming up from behind the trees in the distance. We rushed towards the the scene of the engeener had escaped from the night before was in the flames. Sherlock said that the oil lamp that the engineer had been using in the chamber was the most the most likely cause of the fire.”<sup>4</sup> Tarjimada esa: Shundan keyin biz Eyford stansiyasiga ketishga otlandik. U yerga borgach, uzoqdan -daraxtlar ortidan ko’tarilib kelayotgan qora bulutlarga ko’zimiz tushdi. Bu manzarani ko’rib kecha muhandis qochib qutulgan o’sha kichkina xonani ko’rish maqsadida qora bulutlar tomon borishga shoshildik. Yetib borgach o’sha xonaning allaqachon yonib bo’lganini ko’rib, biroz hafsalamiz pir bo’ldi.”<sup>5</sup> Tarjimon tarjima mobaynida asar asliyatida keltirilmagan so’zlarni ham mohirlik bilan asar ma’nosiga putur yetkazmay uni yanada boyitib beradi.

<sup>3</sup> Yuqoridagi kitob. 77-b

<sup>4</sup> Sir Arthur Konan Doyle. The Adventure of Sherlock Holmes. The Engineer’s Tumb-Toshkent 2017.-51b

<sup>5</sup> Dilbar Toyliyeva .Sherlock Holmesning sarguzashtlari.-Toshkent 2017.-106b

Doylning detektiv asarlarini tarjima qilishda bir nechta murakkabliklar mavjud. Birinchidan, o‘ziga xos inglizcha iboralar va jargonlarni boshqa tillarga moslashtirish talab etiladi. Masalan, «Sherlok Xolms»da ishlatilgan turli noaniq yoki maxsus atamalar, masalan, tibbiy terminlar yoki o‘ziga xos til birikmalari tarjimon tomonidan to‘g‘ri talqin qilinishi kerak. Ikkinchidan, matnning stilistik xususiyatlari – Doylning sarguzasht va intriga bilan boy yozuv uslubi, uning oddiy va aniq tili, o‘ziga xos izohlar va mavhum ifodalari – bu ham tarjimonda saqlanadigan elementlardir.

## Xulosa

Tarjima nazariyasi amaliy jihatdan ikki asosiy yondashuvga tayanadi: literal (so‘zma-so‘z) va erkin tarjima. Doylning asarlarini tarjima qilishda bu yondashuvlarning o‘ziga xos rolini ko‘rish mumkin. Literal tarjima asar matnining tilda ifodalanishiga sodiq qoladi, bu esa originalning original holatini saqlashga yordam beradi. Ammo, ayrim hollarda, erkin tarjima madaniy moslashuv va matnning asosiy mazmunini o‘quvchiga yetkazish uchun muhim bo‘lishi mumkin. Artur Konan Doylning detektiv asarlarining tarjimasi tarixi va nazariyasi tarjimonlar uchun katta ahamiyatga ega. Tarjima jarayoni, nafaqat tilning o‘ziga xosligini, balki madaniyatning chuqur qatlamlarini ham tushunishni talab qiladi. Tarjima nazariyasining asosiy tamoyillari va amaliy yondashuvlari, shuningdek, tarjimonning tafsir qilishdagi o‘rni, Konan Doylning asarlarini global miqyosda o‘quvchilarga yetkazishda muhim rol o‘ynaydi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.G’ofurov I. Tarjima nazariyasi. -Toshkent: Tafakkur bo’stoni, 2012.-44b
2. Sir Arthur Konan Doyle. The Adventure of Sherlock Holmes. The Engineer’s Tomb-Toshkent 2017.-51b
- 3 . Dilbar Toyliyeva .Sherlock Holmesning sarguzashtlari.-Toshkent 2017.-106b
4. Arthur Konan Doyle. The man with the Twisted Lip. The adventure of Sherlock Holmes. Toshkent-2017 25-b



5. Dyne S. S. Detektiv yozishning 20 qoidasi -: http://scriptmaking.ru/library/189/42308/one-dine-ss-twenty-rules-for-writing-detectivenovels.html
6. Mirzayeva, D. (2019). THE CONCEPT OF "FRIENDSHIP" IN UZBEK AND ENGLISH LINGUISTIC CULTURE. Мировая наука, (11), 29-32. 10.
7. . Mirzaeva, D. I. (2020). THE ROLE OF PAREMIOLOGY IN THE LANGUAGE SYSTEM. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(6), 245-251